



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ESSE JANRINING KELIB CHIQISHI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Narzullayeva Husnora

O'zJOKU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada esse janrining kelib chiqishi, lug'aviy ma'nosi va adabiyotshunoslikdagi o'rni tahlil qilingan. Essening o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, erkin kompozitsiya, muallifning sub'ektiv "men"i va uning badiiy-publitsistik tabiati batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, jahon va rus adabiyotida esse janrining shakllanish bosqichlari hamda uning maqola, очерк kabi boshqa turdosh janrlar bilan o'xshash va farqli jihatlari ilmiy manbalar asosida qiyosiy o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Esse, adabiyotshunoslik, erkin kompozitsiya, muallif "men"i, badiiy-publitsistik janr, janrlararo sintez, Mishel de Monten.*

Abstract: *This article analyzes the origin, lexical meaning, and role of the essay genre in literary criticism. The specific features of the essay, including its free composition, the author's subjective "I", and its artistic-journalistic nature, are highlighted in detail. Furthermore, the stages of the formation of the essay genre in world and Russian literature, as well as its similarities and differences with other related genres such as articles and sketches, are comparatively studied based on scientific sources.*

Keywords: *Essay, literary criticism, free composition, author's "I", artistic-journalistic genre, cross-genre synthesis, Michel de Montaigne.*

Аннотация: *В данной статье анализируются происхождение, лексическое значение и роль жанра эссе в литературоведении. Подробно освещены специфические особенности эссе, в том числе свободная композиция, субъективное «я» автора и его художественно-публицистическая природа. Кроме того, на основе научных источников в сравнительном плане изучены этапы формирования жанра эссе в мировой и русской литературе, а также его сходства и отличия от других смежных жанров, таких как статья и очерк.*

Ключевые слова: *Эссе, литературоведение, свободная композиция, авторское «я», художественно-публицистический жанр, межжанровый синтез, Мишель де Монтень.*

Adabiyotshunoslikda esse (fransuzcha *essai* so'zidan, lotincha *exagium* – sinab ko'rish, baholash) atamasi bilan ataladigan alohida janr mavjud. Ma'lumki, bu atama ilk bor XVI asr fransuz adibi Mishel de Monten tomonidan o'zining erkin fikr va kuzatishlarga asoslangan asarlariga nisbatan qo'llangan. Esse atamasi lug'aviy ma'noda "urinib ko'rish, tajriba sifatida sinash" ma'nolarini anglatadi. Shu bois esse tugallanmagan, doimo ochiq qoluvchi mushohada jarayoni sifatida tasavvur etiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "Esse — fransuzcha *essai* va lotincha *exagium* so'zlaridan kelib chiqib, sinab ko'rish, baholash



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



mazmunini anglatadi hamda o'z tabiatiga ko'ra tugamaydigan, ochiq janr hisoblanadi"⁶⁶. Ya'ni esse avvaldan inson tafakkurini erkin ifodalashga mo'ljallangan janr bo'lib shakllangan.

Esse janri adabiyotda keng tarqalgan bo'lib, uning an'anaviy namunalari jahon adabiyoti tarixida ko'plab uchraydi. Masalan, Montening "Esselar"i (1580), ingliz adibi Frensis Bekoning falsafiy esselari, rus adabiyotidagi Ivan Turgenevning ayrim falsafiy -ma'rifiy mulohazalari – bular esse janrining ilk klassik namunalaridir. Ingliz adabiy manbalarida esa esse janriga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ingliz adabiyotshunosligida esse adabiy janr sifatida lug'atlar va ensiklopediyalarga kiritilgan bo'lib, unda erkin kompozitsiya, qisqalik va chegaralanmagan mulohaza yuritish xos belgi sifatida ko'rsatiladi"⁶⁷. Bu fikrdan ko'rinadiki, esse avvalo erkin tuzilishga ega, muallif fikri bemalol shakllanadigan janrdir.

Umuman olganda, esse janrining quyidagi asosiy belgilari ajratib ko'rsatiladi. Birinchidan, esseda muallifning shaxsiy "men"i doimo faol bo'ladi, asar ohangida kuchli sub'ektivlik seziladi. Ikkinchidan, esse qat'iy syujetga ega bo'lmagan, erkin kompozitsiyali asar bo'lib, unda fikr va mulohaza oqimi tabiiy ravishda rivojlanadi. Uchinchidan, janrga xos ohang falsafiy-mulohazakor ruhda bo'lib, muallifning dunyoqarashi va intellektual izlanishlari markazda turadi. To'rtinchidan, esseda badiiy-obrazli tasvir vositalari (obrazlar, metaforalar, detallar) muallifning intellektual tahlili bilan uyg'un qo'shiladi. Beshinchidan, esse uslubida o'quvchi bilan bevosita "suhbat" qurish, erkin muloqot ohangi ustunlik qiladi. Shunday qilib, esse – o'z fikrini erkin, sub'ektiv shaklda bayon etuvchi, badiiy tafakkur bilan publitsistik mushohadani birlashtiruvchi janrdir.

Ta'kidlash joizki, esse hajm va shakl jihatidan qat'iy chegaralarga ega emas. Mutaxassislar fikriga ko'ra, "Essening hajmi va shakllari har xil. Ikki-uch satrdan iborat kichkina bir hayotiy manzarani yoki voqealar tasvirini ifodalashi, fikrning yoki kechinmaning aforistik talqinidan to epik janrga xos katta hajmli asar ham bo'lishi mumkin"⁶⁸. Demak, esse bir necha satrlik qisqa matndan tortib, butun boshli kitob hajmidagi keng qamrovli asargacha bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, esse janri erkin kompozitsiyaga ega deyilsa-da, baribir u badiiy asar sifatida ma'lum kompozitsion yaxlitlikni talab qiladi. Har qanday badiiy asar singari, esse ham tuzilishning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, "Adabiy asarning kompozitsiyasini asar tuzilishining umumiy qonuniyatlariga ko'ra belgilash mumkin"⁶⁹. Adabiyot nazariyotchisi V.V. Vinogradov bu borada "Nutq uslubiyati asosiy janrlar tuzilishining tizimi haqidagi ta'limotni yoki ijtimoiy nutq tuzilmaviy turlarini o'z ichiga olishi kerak" deb ta'kidlaydi. Ya'ni har qanday asar – u qaysi tur yoki janr bo'lishidan qat'i nazar – to'laqonli tuzilishga, yaxlit shaklga ega bo'lmog'i lozimligi umumiy talab

⁶⁶ Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. **Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари**. V жилд. – Тошкент: «O'zbekiston», 2019. – 438-бет.

⁶⁷ Ўша асар. – 435-бет.

⁶⁸ Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik, 1-jild. Toshkent: 1991. – B. 23.

⁶⁹ Toxirov Z. T. **Adabiy tahrir**. – Toshkent: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012. – 116-бет.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sanaladi.⁷⁰ Esse ham bundan mustasno emas: erkin ifoda va syujetsiz tuzilish ortida ham asarning ichki mantiqiy izchilligi saqlanishi zarur.

Esse janri jahon adabiyotida paydo bo‘lgan eng qadimiy nasriy janrlardan biri hisoblanadi. Uning boshlanishi odatda XVI asrga – fransuz yozuvchisi Mishel de Monten ijodiga borib taqaladi. Monten o‘zining mashhur “Esselar” (1580) to‘plami orqali adabiyotda yangi janr – shaxsiy mulohaza va kuzatuvlarga asoslangan erkin inshoni yaratdi. Keyinchalik ingliz adabiyotida Frensis Bekon, Jozef Addison, Ralf Emerson kabi adiblar esse janrini rivojlantirdilar; rus adabiyotida esa XIX asrda I. Turgenev, L. Tolstoy singari ijodkorlarning ayrim asarlarida essega xos falsafiy mushohada unsurlari kuzatildi. Biroq mustaqil janr sifatida esse asosan G‘arb adabiyotida taraqqiy etib, to‘liq shakllandi.

Ingliz-amerika adabiy an‘anasida esse keng ommalashib, hatto adabiy ensiklopediya va lug‘atlarda mustaqil janr sifatida e‘tirof etilgan. “Yuqorida keltirilgan ingliz manbalarida ko‘rganimizdek, essega erkin kompozitsiya, lo‘ndalik va cheklanmagan mulohaza yuritish asosiy xususiyat sifatida ta’kidlanadi”⁷¹. Yevropa va Amerika adabiyotlarida esa esse o‘ziga xos adabiy janr sifatida yuqori badiiy-estetik mezonga ega deb qaraladi. “Yevropa va Amerika adabiyotlarida esse mustaqil badiiy-estetik mezonlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos adabiy janr sifatida qaraladi”⁷².

Rus adabiyotshunosligida esse janri nisbatan kechroq o‘rganila boshlandi. Xususan, sobiq Ittifoq davrida 1970-yillardan boshlab essega ilmiy qiziqish ortdi. Dastlab rus adabiy tanqidida esse asosan G‘arbgacha xos, o‘z milliy adabiyotlarida an‘anasi kuchli bo‘lmagan “chet el” janri sifatida talqin qilindi. “Rus adabiyotida esse janrini o‘rganish 70-yillardan boshlandi va bu tadqiqotlarda esse asosan G‘arb adabiyotiga xos janr sifatida talqin qilinadi”⁷³. Biroq ayrim tadqiqotchilar nazarida, rus adabiyoti tarixida ham essening ilk unsurlarini ko‘rish mumkin. Jumladan, qadimgi rus adabiyotidagi “So‘z” janri essega xos elementlarni o‘zida mujassam etgan. Tadqiqotchilar bu holatni ta’kidlab, “Essening dastlabki unsurlari qadimgi rus adabiyotidagi “So‘z” janri bilan bog‘liq bo‘lib, fikrning nutqiy-kompozitsion tarzda spontan rivojlanishi ular orasidagi yaqinlikni belgilaydi”⁷⁴ deb yozadilar.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib, jahon miqyosida esse janri yangi intellektual ko‘tarilish va ommaviylashuv bosqichiga kirdi. Global axborot asri va ommaviy kommunikatsiyalar taraqqiyoti tufayli esse janri mediabo‘shliqni keng qamrab olib, ommabop ko‘rinishga aylandi. “Gumanitar tafakkur rivojida esse intellektual tezashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, zamonaviy mediabo‘shliqni to‘liq qamrab oluvchi janrga

⁷⁰ O‘sha joy

⁷¹ Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. **Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари**. V жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2019. – 435-бет.

⁷² Ўша асар. – 435 -бет.

⁷³ Ўша асар. – 435 -бет.

⁷⁴ Ўша асар. – 436 -бет.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



aylandi”⁷⁵. Ya’ni bugungi kunda esse nafaqat adabiy jurnal va kitoblarda, balki internet sahifalari, bloglar, ommaviy axborot vositalarida ham keng uchraydigan janrga aylandi.

Adabiy-nazariy jihatdan esse janri ko‘pincha “oralig” janr sifatida talqin etiladi. Ya’ni u badiiy adabiyot bilan publitsistik adabiyot oralig‘ida turadi. Bir tomondan, esseda nasrga xos badiiylik unsurlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan unda publitsistikadan meros qolgan ijtimoiylik va tahliliy ruh mavjud. Shuningdek, esse ilmiy-falsafiy mushohadani badiiy-obrazli ifoda bilan uyg‘unlashtiradigan, janrlararo sintez mahsuli sifatida qaraladi. Ko‘plab adabiyotshunoslar esse janrini aynan shunday “ikki qirrali” janr deb baholaydilar.

Esse nazariyasida muallif obrazining o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Esseda muallifning shaxsiy dunyoqarashi, ichki kechinmalari bevosita matnga singdiriladi. Shu bois esse ko‘pincha ichki monolog tarzida, muallifning o‘zi bilan o‘zi suhbatlashuvi ohangida yoziladi. Bunda badiiy adabiyotga xos lirizm va falsafiy mushohada uyg‘unlashadi. Tadqiqotchilar esse muallifi obrazini bir necha qirrali hodisa sifatida tavsiflaydilar: zaruriyatga qarab esse muallifining “men”i turli shakl va uslublarga oson moslasha oladi. “Tadqiqotchilar esse muallifining “men”i ko‘pqirrali ekanini, vaziyatga qarab shakl va uslub jihatidan oson moslasha olishini alohida ta’kidlaydilar”⁷⁶. Darhaqiqat, esse yozuvchisi o‘z “men”ini turfa uslub va niqoblarda namoyon etishi mumkin – goh ilmiy-tahliliy ohangda, goh badiiy-obrazli tilda, ba’zan esa ijtimoiy-publitsistik pafos bilan yozadi.

Esse janrining adabiy-estetik tabiati haqida fikr yuritilganda, uning boshqa janrlar bilan chegaradosh jihatlari ham muhokama qilinadi. Xususan, esse ko‘pincha maqola, ocherk, memuar, kundalik, felyeton kabi janrlar bilan qiyoslanadi. Esse mazmunan ilmiy-tahliliy maqolaga yaqin bo‘lsa-da, undan keskin farq qiladi: esse qat’iy mantiqiy-isbotiy tizimga emas, erkin fikr yuritish va badiiy-obrazli ifodaga tayanadi. Maqolada muallif ma’lum bir g‘oyani dalillar orqali isbotlashga intilsa, esseda muallif fikri erkin asoslanadi; dalillardan ko‘ra mulohaza jarayoni va uslubiy ta’sir kuchliroq ahamiyatga ega. Xuddi shuningdek, esse ocherk janri bilan ham o‘xshash qirralarga ega – har ikkisi hayotiy voqea yoki shaxs haqida yozilishi mumkin. Biroq ocherkda asosan voqea-hodisalar tasviri va faktografik ma’lumotlar ustun bo‘lsa, esseda aksincha, muallif tafakkuri, voqealarning qalbda uyg‘otgan hissiy kechinmalari va ulardan chiqarilgan xulosalar birinchi o‘ringa chiqadi. Shunday qilib, esse an’anaviy publitsistika janrlari (maqola, reportaj, felyeton va hokazo) bilan qator jihatlarda yaqinlikka ega bo‘lsa-da, ularning hech biriga to‘la singib ketmagan, o‘ziga xos mustaqil janr bo‘lib qoladi.

Bundan tashqari, ayrim milliy adabiyotlardagi esse janrining shakllanishi ham turlicha kechgan. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, “Rossiya publitsistikasida esse ko‘proq hujjatli janr sifatida shakllangan bo‘lsa, boshqa milliy adabiyotlarda u badiiy va hujjatli shakllarning

⁷⁵ Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. **Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари**. V жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2019. – 436-бет.

⁷⁶ Ўша асар. – 437 -бет.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qorishiq ko‘rinishlarida uchraydi”⁷⁷. Ya’ni ba’zi adabiy maktablarda esse hujjatli publitsistika va badiiy nasrning qo‘shma shakli tarzida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, esse – inson tafakkurining erkin parvozini, shaxsiy kuzatuv va falsafiy mushohadalarni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos ochiq hamda sintezlashgan janrdir. U badiiy adabiyot va publitsistika chegarasida joylashib, har ikki sohaning eng ta’sirchan xususiyatlarini o‘zlashtirgan holda shakllangan. Asrlar davomida G‘arb adabiyotida paydo bo‘lib takomillashgan bu janr bugungi globallashuv va axborot asrida yanada ommalashib, zamonaviy mediabo‘shliq uchun eng qulay fikr ifodalash vositasiga aylandi. Esse janrining adabiy-nazariy tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, qat’iy qoliplar va syujetdan xoli bo‘lishiga qaramay, u asarning ichki mantiqiy yaxlitligini, yuksak badiiy-estetik mezonlarni va muallifdan chuqur intellektual salohiyatni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари. V жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2019. – 438 б.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent, 1991.
3. Toxirov Z. T. Adabiy tahrir. – Toshkent: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012.
4. Odilov Y., Sobirova M. Media tili va uslub. – Toshkent: «Bookmany print», 2024.
5. Shamaqsudova S. Media tili va uslubi. – Toshkent: «Universitet», 2021.
6. Teshabayeva D. M., Ballom G. X., Isroil M. I., Toshmuhamedova L. I., Nuritdinova M. Ch. Media lingvistika va tahrir. III jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2019.

⁷⁷ Саидов Х., Тошпулатова Н., Нурматов А. ва бошқ. Босма оммавий ахборот воситаларда жанрлар ва маҳорати масалалари. V жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2019. – 436-бет.

